



MUSTAQILLIK PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR MUAMMOSI SIFATIDA

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.082>

D.A.Saliyeva

*Qo‘qon davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası mudiri,
psixologiya fanlari nomzodi, professor*

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik tushunchasining psixologik bilimlar sohasidagi o‘rni va ahamiyati borasidagi fikrlari keltirib o‘tiladi. Ayniqsa, xorij olimlari tomonidan mustaqillik tushunchasiga nisbatan ilgari surilgan ta’riflarning mazmunlari bayon qilingan. Shunga muvofiq ravishda shaxsda mustaqillik sifatini namoyon bo‘lishining komponentlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, mustaqillik, irodaviy sifatlar, bilish mustaqilligi, aqliy mustaqillik, mazmunli mustaqillik, o‘quv mustaqilligi, qadriyat, refleksiya, faollashtirish, operasion, hamkorlik.

Аннотация. В статье представлены взгляды на роль и значение понятия независимости в области психологических знаний. В частности, изложены содержание определений, выдвинутых зарубежными учеными относительно понятия независимости. Соответственно, показаны компоненты проявления качества самостоятельности личности.

Ключевые слова: личность, самостоятельность, волевые качества, познавательная самостоятельность, интеллектуальная самостоятельность, содержательная самостоятельность, учебная самостоятельность, ценность, рефлексия, активизация, операция, сотрудничество.

Abstract. The article presents thoughts on the role and importance of the concept of independence in the field of psychological knowledge. In particular, the content of the definitions put forward by foreign scientists regarding the concept of independence is described. Accordingly, the components of the manifestation of the quality of independence in the individual are indicated.

Keywords: personality, independence, volitional qualities, cognitive independence, mental independence, content independence, educational independence, value, reflection, activation, operation, cooperation.

KIRISH. Zamonaviy dunyodagi o‘zgarishlar ta’lim jarayonidagi asosiy e’tibor o‘qitishdan o‘rganishga, o‘qitishning o‘zini axborot uzatish sifatida emas, balki mazmunli

o‘rganish jarayonlarini faollashtirish sifatida tashkil etishga o‘tkazish vazifasini ilgari surmoqda. Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayonida talabalar mustaqilligini rivojlantirish, bir tomondan, inson tafakkurini, ikkinchi tomondan, ta’lim muhiti sharoitlarini global qayta qurishni talab qiladigan alohida dolzarb muammoga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Xorijiy psixologiyasida “mustaqillik” tushunchasi asosan ko‘p jihatdan turli xil jarayonlarni anglatuvchi yig‘ma atama sifatida qo‘llaniladi. Mustaqillik ham jarayon, ham harakat bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha belgilanishi mumkin. Mustaqillik shaxsning xususiyati (L.S. Vigotskiy) va uning sifati (S.L. Rubinshteyn), mahsuldor faollik va sub’yektiv tajriba (A.K. Osnitskiy), ichki energiya (3. Freyd), insonning “Men”i (E. Fromm) va xulq-atvor modeli (A. Reber), turli qobiliyatlar (K.K. Platonov).

“Mustaqillik” tushunchasini bugungi kunda ongda qanday shakllangan bo‘lsa, shundayligicha olib qaraydigan bo‘lsak, eng avvalo, uning ko‘p ma’noli ekanligini qayd etish lozim. Hozirgi kunda “bilish mustaqilligi”, “aqliy mustaqillik”, “mazmunli mustaqillik”, “o‘quv mustaqilligi” kabi tushunchalar qo‘llaniladi.

I.Ya.Lerner [9], bilish va aqliy faollik masalalariga to‘xtalib, uni “shaxsning organik xususiyatlari va ko‘nikmalarining murakkab qotishmasi” deb hisoblaydi. Bir tomondan, muallif bilish va aqliy faollikning ko‘rsatkichlari sifatida insonga xos bo‘lgan “ijodiy tomir”, izlanuvchanlik va qiziqishni ajratib ko‘rsatadi; boshqa tomondan, uning aqliy harakatlarining oqilona usullari. Shaxsning bu xususiyatlari birgalikda, I.Ya. Lernerning fikricha, faollikni ham, mustaqillikni ham tavsiflaydi. Faollik muallif talqinida mustaqillik tushunchasiga uning sharti sifatida kiritiladi. Lekin faollik mustaqillik bilan qo‘shilmasligi ham mumkin.

M.A.Danilovning fikricha, “bilish faolligi tafakkur va faoliyat mustaqilligining tayyorgarlik bosqichidir” [5]. Bilish faolligi bilish mustaqilligiga ham evolyusion, ham sakrash yo‘li bilan o‘tadi. Bilish mustaqilligi insonning barcha psixik sifatlari kabi faoliyat jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi.

Bilish mustaqilligi - bu talabaning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqotchilik faoliyatidir. Mustaqillikning bu turi ba’zan “bilish faolligi” tushunchasi bilan tenglashtiriladi, ammo ular o‘rtasida prinsipial farqlar mavjud. Bilish faolligi stixiyali, spontan xatti-harakatning xususiyati bo‘lib, bilish mustaqilligi maqsadning mavjudligi, o‘zini o‘zi boshqarish elementlari bilan bog‘liq. Bu shaxsiy-tashkil etilgan, ichki determinatsiyalangan faoliyatdir.

Aqliy mustaqillikning xususiyatlari pedagogik psixologiya tomonidan o‘rganiladi. Shunday qilib, an’anaviy ravishda aqliy mustaqillik ikki guruh ko‘nikmalarining shakllanishi bilan ifodalanadi: intellektual va operasion.

Operasion ko‘nikmalarga tinglash va o‘qish, kerakli materialni izlash va topish ko‘nikmalari (Yu.A.Samarin [15]), materialni idrok etishni vaqt bo‘yicha taqsimlash, ish joyini tayyorlash va ma’lumotnoma adabiyotlaridan foydalanish ko‘nikmalari (Ye.Ya.Golant [4]) kiradi.

Intellectual ko‘nikmalar muammoni ko‘rish, yangi masalani qo‘yish va uni hal qilish qobiliyati (A.V.Brushlinskiy [3]), “axborotni yig‘ish” qobiliyati (A.N. Luk [10]), baholash harakatlarini amalga oshirish, faoliyat natijasini oldindan ko‘rish, uni bashorat qilish, noma’lum narsada ma’lum elementlarni topish qobiliyati bilan tavsiflanadi (B.M.Teplov, M.R.Morozov, Yu.N.Dmitriyeva, T.I.Shamova). Shuning bilan birga fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash, bajarilayotgan faoliyatga tanqidiy munosabatda bo‘lish, vazifani turli usullar bilan hal qilish qobiliyati, muammolarni hal qilishning oqilona yo‘llarini izlash, bilimlarni yangi sharoitlarga o‘tkazish qobiliyatlari qo‘shiladi.

O‘z navbatida, P.P.Blonskiy, A.K.Markova, N.A.Menchinskaya va boshqalar intellectual mustaqillikni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini sanab o‘tadilar. Ular o‘zini o‘zi nazorat qilish va baholash ko‘nikmalari hisoblanadi. Intellectual mustaqillikning yetakchi belgilariga quyidagilar kiradi: farazlarni ilgari surish, qidiruv rejasini ishlab chiqish, tadqiqot natijasini o‘rganilayotgan hodisa bilan bog‘lash va uning ishonchliligini tekshirish. Analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash va abstraksiyalash tafakkur operatsiyalarining shakllanganligi bunday mustaqillikning majburiy ko‘rsatkichi deb ataladi.

B.D.Parigin [12] tomonidan (O.A. Konopkinning o‘z-o‘zini boshqarish konsepsiyasi doirasida) “samarali mustaqillik” deb nomlangan boshqaruvchi asosga ega bo‘lgan sub’yektning tizimli sifati ajratib ko‘rsatilgan va tavsiflangan. Bu shaxsiy fazilatlar majmuasi: yig‘ilganlik, o‘ziga va bajarilgan faoliyat natijalariga ishonch, mas’uliyat, rivojlangan o‘zini o‘zi nazorat qilish, bir ishdan boshqasiga osongina o‘tish, faoliyatning tashqi va ichki sharoitlarini yetarli darajada baholash qobiliyati va boshqalar bo‘lib, u sub’yektning haqiqiy faoliyatida shakllanadi. Ayniqsa, uni amalga oshirishning barcha bosqichlarida maqsadni belgilashdan uni amalga oshirishgacha namoyon bo‘ladi), unga boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

O‘zining mustaqilligini qaror toptirish - bu hayotning mas’uliyatli va ijodiy yo‘lini bosib o‘tish demakdir. Ba’zi psixologlar mustaqillikni xarakterning irodaviy xususiyati sifatida ko‘rsatadilar - V.A.Artemov, N.D.Levitov, V.A.Krutetskiy, P.I.Ivanov, M.N.Skatkin, V.Ye.Sirkina va boshqalar); boshqalari - Sh.I.Ganelin, Ye.Ya.Golant, A.G.Kovalev, I.Ya.Lerner, L.A.Visotina, M.A.Danilov, D.N.Petrova, N.A.Polovnikova, I.A.Reyngard, Yu.A.Samarin, V.Ye.Sirkina, G.I.Shukina va boshqalar.

O‘qitish jarayonining didaktik asoslari tadqiqotchilari -S.I. Arxangelskiy, G.N.Dayri, M.A.Danilov, B.P.Yesipov, N.N Gruzdev, I.T.Ogorodnikov, M.N.Skatkin va boshqalar. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi yaratuvchilari - L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, L.V.Zankov, A.L.Lyublinsaya, D.B.Elkonin va boshqalar ta’limda mustaqillikni rivojlantirish nazariyasini yaratishga katta hissa qo‘shdilar. Mustaqillik va faollikni shakllantirish bilan bog‘liq masalalar M.I.Mashutov, G.S.Kostyuk, T.V.Kudryavsev, N.A.Menchinskaya, V.Okon, T.I.Shamova, L.P.Aristova va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Oliy maktabda mazkur muammo R.A.Nizomov, Z.A.Reshetova, A.V.Barabanshikov, T.N.Boldishev, Ye.V.Bondarevskaya, L.G.Vyatkin, Yu.S.Pimenov, A.M.Matyushkin va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagogik psixologiyada mustaqillik muammosi tashkil etilgan o‘quv jarayonida bilimlarni egallash bilan bog‘liq holda hal qilingan: P.Ya.Galperin, N.F.Talizina, A.I.Rayev va boshqalar, muammoli ta‘lim nazariyasi (A.V.Brushlinskiy, Yu.N.Kulyutkin, A.M.Matyushkin, G.S.Suxobskaya, A.F.Esaurov va boshqalar).

Ba‘zi pedagoglar (L.P.Aristova, B.P.Yesipov, R.A.Nizamov va boshqalar) mustaqillik xususida fikr yuritganda, o‘quvchilar boshqalarning yordamisiz o‘zi amalga oshiradigan har qanday faoliyatini nazarda tutadilar. Boshqalar (N.G.Dayri, M.A.Danilov, I.Ya.Lerner va b.) mustaqillik deganda faqat o‘zgartiruvchi xarakterdagi faoliyatni nazarda tutadilar.

V.I.Slobodchikov mustaqillikni “sub’yektiv reallik tizimi” sifatida ko‘rib chiqadi [16]. Ushbu talqinga rivojlanishning ikki tomonini - uning ob’yekti va manbaini (shuningdek, harakatlantiruvchi kuchlar, dastlabki qarama-qarshiliklar, mexanizmlar, yo‘nalish, shakllar va rivojlanish natijalarini) bir vaqtning o‘zida qamrab oluvchi chegaraviy kategoriya asos qilib olingan.

Sub’yektiv voqelikning rivojlanish nazariyasini rivojlantirishga imkon beradigan bunday o‘ta umumiy tushuncha hodisaviy umumiylik tushunchasi bo‘lib, uning ichida, birinchidan, individga turli umumiyliklarga kirish va madaniyatning muayyan shakllariga qo‘shilish, ikkinchidan, umumiylikdan chiqish, individuallashish va o‘zi yangi shakllarni yaratish, ya‘ni o‘ziga xos bo‘lish imkonini beradigan sof insoniy qobiliyatlar shakllanadi.

O‘quvchilarning mustaqilligi muammosini birinchilardan bo‘lib rus pedagoglardan biri K.D.Ushinskiy ko‘rib chiqdi. Uni haqli ravishda Rossiyada mustaqillikni tarbiyalash nazariyasining asoschisi deb atash mumkin. Uning fikricha, mustaqillikni tarbiyalash mushohadaga, kuzatishga o‘rgatishdan boshlanadi. Darhaqiqat kuzatishgina mustaqil fikrlash “mustaqil fikrlar esa faqat mustaqil egallangan bilimlardan kelib chiqadi” degan qarashga asoslanadi [17].

Mustaqil faoliyat jarayonida o‘quvchi tobora murakkabroq tafakkur shakllarini, nazariy va mantiqiy kategoriyalarni egallab boradi. Natijada uning tafakkuri yanada ongliroq, binobarin, yanada mustaqilroq bo‘lib boradi.

N.V.Basova insonning muhit bilan o‘zaro ta‘siriga mutlaqo yangicha yondashuvni ilgari surdi. M.Ya.Basova nazariyasining asosiy qoidasi “inson ob’yektiv, qonuniy tashkil etilgan muhitda faol shaxsdir” degan g‘oyadir [2].

U birinchi marta insonning faolligi nafaqat muhitga moslashishda, balki uni o‘zgartirishda ham namoyon bo‘lishini, muhitning o‘zi esa amorf massa emas, balki ma‘lum bir tarzda tuzilgan vaziyat ekanligini ko‘rsatdi. Rivojlanishning asosiy mazmuni shundan iboratki, inson muhitga faol kirib boradi va uni faol bilish yo‘li bilan egallaydi.

Shuning uchun insonning psixik rivojlanish imkoniyatlari deyarli cheklanmagan. N.V.Basova psixik taraqqiyot mexanizmlarini yangicha tushunishga asos soldi.

TAXLILAR VA NATIJALAR

Umuminsoniy tajribani o‘zlashtirish muammosini A.N.Leontev pedagogik psixologiya doirasida hal qilgan: “Inson o‘z hayoti davomida insoniyat tajribasini, odamlarning oldingi avlodlari tajribasini o‘zlashtiradi. Bu aynan uning mazmunlarini o‘zlashtirish shaklida va shu o‘zlashtirish darajasida sodir bo‘ladi” [8]. Ammo ma‘noni egallash uchun tegishli bilimga ega bo‘lish kamlik qiladi. O‘zlashtirish jarayonida bu fikrlar va bilimlar “ichki o‘ziniki”ga aylanishi, “shaxsga sig‘ishi”, dunyoga munosabatni belgilay boshlashi kerak. Boshqacha aytganda, berilgan bilimni, mazmunini egallash jarayoni, albatta, “biz unga ma‘lum qiladigan bu fikrlar va bilimlar insonning o‘zi uchun nimaga aylanishini” aniqlashni nazarda tutadi [7]. A.N.Leontev aslida xuddi shu “shaxsiy uchrashuv” mexanizmini muhokama qiladi.

Taniqli pedagog va psixolog P.F.Lesgaft [9] ham bizni qiziqtirgan muammoga murojaat qilgan: u sensomotor birlik tamoyiliga amal qilgan holda hissiy-obrazli boshqaruvdan og‘zaki boshqaruvga o‘tish qobiliyatini xulq-atvor mustaqilligini tarbiyalashning eng muhim sharti deb hisoblagan. Xulq-atvorni ongli ravishda boshqarish faqat so‘z asosida mumkin.

Mamlakatimiz psixologiyasida shaxsning faoliyat nazariyasi keng tarqalgan (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.V.Brushlinskiy). Shaxsning o‘zagi, uning rivojlanish manbai sub’yektning jamiyat bilan o‘zaro ta‘sirining murakkab dinamik tizimi sifatida tushuniladigan faoliyat bo‘lib, uning jarayonida shaxs xususiyatlari shakllanadi.

S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surdi. Bu bilan ong insonning ob’yektiv olam bilan hayotiy aloqalari kontekstiga kiritiladi. Bu aloqalarning asosini faoliyat tashkil etadi, uning yordamida inson dunyoni o‘zgartirib, o‘zi ham o‘zgaradi.

XX asrning boshlaridayoq S.L.Rubinshteyn “Ijodiy havaskorlik tamoyili” asarida birinchi marta sub’yektning o‘zini o‘zi belgilash qobiliyati to‘g‘risidagi g‘oyani shakllantiradi:... “sub’yekt o‘z xatti-harakatlarida, o‘z ijodiy havaskorligi aktlarida nafaqat aniqlanadi va namoyon bo‘ladi; u ularda yaratiladi va belgilanadi... Ijodiy havaskorlikning ayni bir akti bilan o‘zini ham yaratib, shaxs yaratiladi va ta’riflanadi. Faqat uning qamrovli yaxlitligiga qo‘shilib, “Ijodda ijodkorning o‘zi ham yaratiladi. Faqat axloqiy, ijtimoiy yaxlitlikni yaratishda axloqiy shaxs yaratiladi. Fikrlar olamini tashkil etishdagina mutafakkir shakllanadi, ma’naviy ijodda ma’naviy shaxs voyaga yetadi. Buyuk shaxsni yaratish uchun faqat bitta yo‘l bor - agar yo‘l bo‘lsa: buyuk ijod ustida katta ishlash” [14]. Shunday qilib, S.L.Rubinshteyn insonning ijodiy tabiati, uning faolligi, yaratuvchanligi, ijodda o‘zini o‘zi belgilash qobiliyati - yaratuvchan amaliy harakat va fikrlash harakatlarida ekanligini ta’kidladi. Faoliyat mustaqil, doimiy rivojlanuvchi; shaxs - yaxlit bir butunlik, mustaqil ijodiy faoliyat natijasi sifatida ta’riflangan. S.L.Rubinshteyn fikricha, inson ta’lim olishda ham mustaqillikni namoyon qiladi - u o‘qishga, refleksiyaga, o‘z bilimini egallashga, o‘qituvchi bilan birgalikda izlanishga, ijodiy havaskorlikka qodir.

Shaxsning rivojlanishi, S.L.Rubinshteynning fikricha, bu sub’yektga aylanish qobiliyati bo‘lib, bu shakllanish jarayonida eng yuqori darajaga - shaxsning o‘zini o‘zi

belgilashiga erishishdir. Psixologlar va pedagoglar “sub’yekt” tushunchasiga ma’lum bir mazmunni - mahsuldor mustaqillikni kiritadilar.

K.A.Abulxanova-Slavskayaning ta’kidlashicha, “shaxslarga o‘z vaqtida faollik ko‘rsatish qobiliyati, shuningdek, kelajakdagi faoliyatni dasturlash, uning voqealarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati kabi individual qobiliyatlar xosdir. O‘z xulq-atvorini tobora uzoqroq maqsadlarga bo‘ysundirish qobiliyati, bu maqsadlarni xulq-atvorning haqiqiy boshqaruvchilarga aylantirish nafaqat insonning ontogenetik rivojlanish qonuniyati, balki ijtimoiy yetuklik va mustaqillikni shakllantirish mezonidir” [1].

Bu holat pedagogik psixologiyaga tatbiqan, shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim modelini ishlab chiqishda aniqlashtirilgan (I.S.Yakimanskaya, A.K.Markova, A.B.Orlov).

Mustaqillikni aniqlashda eng keng tarqalgan yondashuv uning tarkibiy qismlarini sanab o‘tishdir. Shu nuqtai nazardan mustaqillik ko‘plab belgilardan tashkil topgan sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Mustaqillikni sub’yekt tajribasining shakllanishi nuqtai nazaridan tahlil qilib, A.K.Osnitskiy uning beshta tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatadi, ular go‘daklikdan yoshlikkacha bo‘lgan yosh davrlarida shakllanadi. Bunday tarkibiy qismlar quyidagilardir:

- qadriyatlar tajribasi (qiziqishlar, axloqiy me‘yorlar, ideallar, e‘tiqodlar, afzalliklarni shakllantirish bilan bog‘liq);
- refleksiya tajribasi (insonning o‘z imkoniyatlari va predmetli olamdagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqidagi bilimlarini bajarilayotgan faoliyat talablari bilan, o‘zidagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar bilan bog‘lash tajribasi);
- odatiy faollashtirish tajribasi (muayyan ish sharoitlari, sa’y-harakatlar va muvaffaqiyatga erishish darajasiga yo‘naltirilgan);
- operasion tajriba (predmetli o‘zgartirish va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari bilan bog‘liq umummehnat bilimlari va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi);
- hamkorlik tajribasi (amalga oshirish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlari bilan bog‘liq).

“Sub’yekt tajribasining barcha tarkibiy qismlari ijtimoiy kuchlarning ta’sirini va sub’yektning o‘zi tabiat tomonidan berilgan narsalarni hisobga olgan holda shakllanadi” [11]. Ta’limning eng muhim tamoyili sifatida ta’lim oluvchilarning o‘zboshimchaligiga yangi davr pedagog-islohotchilari - J.Dyui, V.Lay, E.Keylar qaraganlar. Dj.Dyui [6] ta’lim oluvchilarning o‘z faolligini rivojlantirishga e’tibor qaratdi (1895 yilda Chikago maktablaridan biridagi tajribalar). Tez orada u maktab o‘quvchilarining qiziqishlarini hisobga olgan holda qurilgan va ularning hayotiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim bilimlarni eslab qolishga asoslangan og‘zaki (so‘z, kitob) ta’limga qaraganda ancha yaxshi natija berishiga ishonch hosil qildi. To‘g‘ri tuzilgan ta’lim, J.Dyui fikricha, muammoli bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan muammolarning o‘zi taklif qilingan an’anaviy o‘quv topshiriqlaridan tubdan farq qiladi - ta’lim va tarbiyaviy qiymati past

bo‘lgan va ko‘pincha o‘quvchilar qiziqqan narsadan ancha orqada qoladigan “soxta muammolar”.

An‘anaviy tizimga nisbatan J.Dyui dadil yangiliklar, kutilmagan yechimlarni taklif qildi. “Kitob ta‘limi” o‘rnini faol o‘qish tamoyili egalladi. Uning asosini o‘quvchining o‘z bilish faoliyati tashkil etadi. Faol o‘qituvchining o‘rnini o‘quvchilarga faoliyat mazmunini ham, usullarini ham zo‘rlab o‘tkazmaydigan, faqat o‘quvchilarning o‘zlari yordam so‘rab murojaat qilganlarida qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan yordamchi o‘qituvchi egalladi. Og‘zaki va yozma so‘z o‘rnini nazariy va amaliy mashg‘ulotlar egalladi hamda ularda o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari amalga oshirildi.

Ilmiy adabiyotlarda mustaqillik tushunchasiga turlicha ta‘riflar berilgan. Ba‘zi olimlar tomonidan mustaqillik quyidagi qobiliyat sifatida ko‘rib chiqiladi: bajarilayotgan faoliyatning barcha bosqichlarida o‘zini o‘zi nazorat qilish (N.A.Dementeva); bilish vazifasini ko‘rish va qo‘yish, qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan harakatlarning mustaqilligi (M.A.Danilov); intellektual qobiliyat (M.I.Maxmutov); bilish mustaqilligi bilimlarni o‘zlashtirishda o‘z kuchi bilan oldinga siljish qobiliyati (N.A.Polovnikova).

Boshqa olimlar mustaqillikni: yangi bilish vazifalarini boshqalarning yordamisiz hal qilishga, ularni hal qilishning yangi usullarini yaratishga tayyorlik sifatida (P.I.Pidkasistiy); yangi bilimlarni olish, bilish va amaliy faoliyatning yangi usullarini o‘zlashtirish va ulardan hayotiy muammolarni hal qilish uchun foydalanish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan shaxs xususiyati sifatida (O.V.Petunin); shaxsning o‘z tashabbusi bilan maqsadlarni belgilash, ularga erishish yo‘llarini topish va qabul qilingan qarorlarni amalda bajarish qobiliyatida ifodalangan irodaviy xususiyati sifatida (V.V.Bogoslovskiy); individning ijtimoiy namoyon bo‘lishida dunyoqarash tomonidan tashkil etilgan faol iroda sifatida mustaqillik (Yu.V.Kurbatkina); faoliyatning intellektual va irodaviy omillari birligi sifatida fikrlash va harakatlarda, maqsad va intilishlarda, ularni amalga oshirishda, ya‘ni, irodaviy aktning barcha bo‘g‘inlarida va mazmunli xatti-harakatlar tizimida namoyon bo‘ladi (N.A.Dementeva); shaxsning muammolar, vazifalar, ijodiy topshiriqlarni hal qilish, diqqatni safarbar qilish, psixologik tahlil jarayonlari bo‘yicha qat‘iy harakatlari sifatida (R.A.Nizomov); talabalarda turli manbalardan yangi bilimlarni o‘zlashtirish, bilish faoliyati usullarini egallash, ularni takomillashtirish va har qanday muammolarni hal qilish uchun turli vaziyatlarda ijodiy qo‘llash ehtiyoji va qobiliyatida namoyon bo‘ladigan shaxs sifati sifatida (V.X.Xalmuxamedova) va hokazo.

P.I.Pidkasistiy [13] mustaqillikni shakllantirish faqat uni ilmiy bilish jarayoniga muntazam jalb qilish, mustaqil ishlarni bajarish va ularning murakkabligini izchil oshirib borish natijasida mumkinligini ta‘kidlaydi. Boshqa mualliflar singari u ham ijodni bilish mustaqilligining zaruriy va majburiy elementi deb hisoblaydi.

XULOSALAR

Psixologiyada mustaqillik muammosining nazariy tahlili shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, mustaqil faol, faoliyat yurituvchi mutaxassisni tayyorlashga yo‘naltirilgan

ta’lim tizimining asosiy muammolaridan biri o‘qitish va o‘qituvchining rolini qayta baholash va shu bilan birga mazmunli mustaqil ta’limning rolini yetarlicha baholamaslik hisoblanadi.

Zamonaviy dunyodagi o‘zgarishlar ta’lim jarayonidagi asosiy jihatni o‘qitishdan o‘rganishga, o‘qitishdan o‘zini axborot uzatish sifatida emas, balki mazmunli o‘rganish jarayonlarini faollashtirish sifatida tashkil etishga o‘tkazish vazifasini ilgari surmoqda. Bunday holda, oliy ta’lim muassasasida o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqilligini rivojlantirish, bir tomondan, inson tafakkurini, ikkinchi tomondan, tashqi muhit sharoitlarini (bu holda - ta’lim) global qayta qurishni talab qiladigan alohida dolzarb muammoga aylanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Абульханова-Славская К. А. Психология и сознание личности: проблемы методологии, теории и исследования реальной личности: изб. психол. тр. / К.А. Абульханова. – М.: Моск. психолого-социальный ин-т; Воронеж: МОДЭК, 1998. – 224 с.
2. Басова Н. В. Педагогика и практическая психология: учебное пособие / Н. В. Басова. Ростов н/Д : Феникс, 2013. – 412 с.
3. Брушлинский А. В. Проблемы психологии субъекта / А. В. Брушлинский; РАН Ин-т психологии. – М.: Б.и., 1994. – 109 с.
4. Голант Е. Я. Методы обучения в советской школе /– Москва : ГУПИ Министерства просвещения РСФСР, 1957. – 151 с.
5. Данилов М. А. Процесс обучения в советской школе / М. А. Данилов. — Москва: Учпедгиз, 1960. — 299 с.
6. Дьюи Дж. Педагогика и психология мышления/ Пер. с англ. Н. М. Никольской; Под ред. (и с предисл.) Н. Д. Виноградова. — М.: Мир, 1915.- С. 202.
7. Круглова Н. Ф. Концепция осознанной саморегуляции деятельности и учебная неуспешность / Н. Ф. Круглова // Журнал прикладной психологии. – 2003. - № 6. – С. 19-21.
8. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики / А. Н. Леонтьев. – 3-е изд. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 576 с.
9. Лернер И. Я. Проблемное обучение .- М., 1974.
10. Лук А. Н. Психология творчества. М., 1978. С. 101
11. Осницкий А. К. Психология самостоятельности: методы исслед. и диагностики / А. К. Осницкий; психол. ин-т. РАО, Центр соц.-психол. помощи им. Ж. Казаного. – М.; Нальчик: Эль-Фа, 1996. – 124 с. – (Б-ка психол.-пед. лит; вып. 1).
12. Парыгин Б. Д. Социальная психология (учебное пособие) / Б. Д. Парыгин. — СПб: СПбГУП, 2003. — 616 с.
13. Пидкасистый П. И. Иванов В. Д. Духовность в системе смысло-жизненных координат // Педагогика. — 2012. — N 7.

14. Рубинштейн С. Л. Человек и мир / С. Л. Рубинштейн; послесл. К. А. Абульхановой-Славской, А. Н. Славской; РАН, Ин-т психологии. – М. : Наука, 1997.- 189 с. – (Памятники психологической мысли).

15. Самарин Ю.А. Психологические основы системности и динамичности умственной деятельности школьников (среднего и старшего школьного возраста): автореф. дис... д-ра пед. наук Украины. – Л., 1955. – 36 с.

16. Слободчиков В. И. Развитие субъективной реальности в онтогенезе: психол. основы проектирования образования: автореф. ... д-ра пед. наук / В. И. Слободчиков; РАС, Психолог. ин-т. – М., 1994. – 78 с.

17. Ушинский К. Д. Собрание сочинений: в 11-ти т. / К. Д. Ушинский ; сост. В. Я. Струминский. – М.: Л.: Изд-во АПН РСФСР, 1950. – т.8, ч. 1. Человек как предмет воспитания: опыт пед. антропологии. – 776 с.